

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MA'NAVIY-AXLOQIY MASALALAR

Jaxongir PULATOV

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: vatan, vatanparvarlik, milliy g'urur fenomenlari o'rtasidagi hodisalarning deterministik mohiyati va inson ekzistensial borlig'i mohiyatini belgilovchi milliy, umuminsoniy, axloqiy tuyg'ulari falsafiy asoslariga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, vatanparvarlik, burch, mas'uliyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Annotation: Proposals and recommendations are presented regarding the deterministic nature of phenomena between the phenomena of homeland, patriotism, national pride, and the philosophical foundations of national, universal, moral feelings that determine the essence of human existential existence.

Keywords: youth, patriotism, duty, responsibility, national and universal values.

Аннотация: Представлены предложения и рекомендации относительно детерминированного характера взаимосвязей между феноменами Родины, патриотизма, национальной гордости и философскими основами национальных, общечеловеческих, нравственных чувств, определяющих сущность экзистенциального бытия человека.

Ключевые слова: молодёжь, патриотизм, долг, ответственность, национальные и общечеловеческие ценности.

Kirish. Dunyoda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar va axborot almashinuvi tezlashuvi kosmopolitizm g'oyalarining keng yoyilishiga hamda odamlarning o'z vatani oldidagi ma'naviy-axloqiy mas'uliyatlarining zaiflashishiga olib kelmoqda. Vatanparvarlik tuyg'usidan mahrum bo'lib, o'z yurtida yashashni qiyin deb hisoblab, qulayroq joylarni o'z vatan deb biladigan insonlar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, bu vatansizlik g'oyalari rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlar aholisi orasida keng tarqalmoqda. Shuning uchun vatanparvarlik mohiyatini to'la anglagan, jamiyatga foydali avlodni tarbiyalash, shuningdek, geosiyosiy sharoitda vatansizlik va ma'naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurasha oladigan mafkuraviy vositalarni yaratish bugungi kun uchun juda muhim vazifa hisoblanadi. Mamlakatimizda barcha sohalarida jahon darajasidagi keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda, shu jumladan, jamiyatning asosiy poydevorini tashkil etuvchi ma'naviy-axloqiy sohani modernizatsiya qilish hozirgi zamon ijtimoiy hayotining dolzarb masalasiga aylangan. Shunday ekan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning yuksak vatanparvarlik hissi, Vatanga sadoqat tuyg'usi hamda Vatan manfaatlarini himoya qilishga tayyor bo'lishi, fuqarolik va konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishga intilishini shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli strategik islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabidir"¹. Shu sababli vatanparvarlik hodisasi va uning

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 275 б.

ma'naviy-axloqiy tomonlarini sotsiokreativ tendensiyalar nuqtai nazaridan falsafiy tahlil qilish ilmiy olimlar tomonidan asosiy tadqiqot mavzusiga aylanishda davom etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda O'zbekistonda vatanparvarlikning yoshlarning ma'naviy yetilishi va milliy g'ururida namoyon bo'lishi, shuningdek, milliy g'oya va mafkuradagi ifodasiga oid tadqiqotlar sezilarli darajada kengayib bormoqda. Xususan, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi va estetik qadriyatlarini rivojlantirishga oid I.Saifnazarov², E.Qalqonov³, O.G'aybullayev⁴ kabi olimlar tadqiqotlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, I.Mo'minov, T.A.Norov, A. Rajabov, R. Qurbonovlar ijtimoiy muhitda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning axloqiy ongida burchga sodiqlikni shakllantirish, ajdodlar merosidagi qahramonliklarni o'rnatishning qiymatli tomonlari hamda jamiyatdagi huquqiy majburiyatlarni bajarishda vatanparvarlikka oid tushunchalarga alohida urg'u berilgan. "Vatanparvarlik" tushunchasining XVIII asrda, Fransiya inqilobi davrida, murakkab tuzilishi, konstruktiv ahamiyati, mafkuraviy asoslari hamda inson va davlat munosabatlari J. Lokk, D. Yum, Volter, J.J. Russo, Sh.L. Monteske, Kant va Gegel kabi ma'rifatparvarlarning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarida o'rganiladi. Shuningdek, Yaponiyada vatanparvarlik tushunchasi va Xitoy hamda Janubiy Koreyada vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, vatanparvarlik falsafasining Abdulla Avloniy asarlarida: "Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shul kishining vatanidir. Har tug'ulgan, o'sgon yerni jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan-uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas"⁵ degan jumla vatanparvarlik g'oyasi jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishiga ishoradir. Vatanparvarlik tuyg'usi axloq falsafasining asosiy tamoyili sifatida insoniy fazilatning ibtidosi, ilk sababi va asosidir, har qanday axloqiy xatti-harakat, xulq atvor va axloqiy faoliyatning boshlang'ich qoidasi sanaladi. Vatanparvarlik ongi siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, diniy, tarixiy, axloqiy tarkibiy qismlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy ongning alohida murakkab shakli sanaladi. "Haqiqiy vatanparvarlik millat, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish"⁶ kabi omillarga tayanadi. Ana shunday davrlarda vatanparvarlik tuyg'ularining kuchi sinovdan o'tadi. Shaxs o'zining bor imkoniyati va iste'dodi bilan o'z Vatanini muvaffaqiyatli rivojlantirishga harakat qiladi. Vatanparvarlik ongini shakllantirishdagi muhim substansional omillar klassifikatsiya qilinadi:

birinchidan, din, diniy xilma-xillik, yagona hudud, umumiy tarix va madaniyat, an'analar, urf-odatlar, mentalitetning transformatsiyasi ularni yagona vatan g'oyasi atrofida birlashtiradi;

ikkinchidan, vatanparvarlik faoliyati va undagi aniq harakatlar, ma'naviy salohiyatini saqlab qolish yo'lidagi mehnat, statik (subyekt va obyekt) va dinamik (urush va tinchlik) tomonlarga ajratilgan;

uchinchidan, vatanparvarlik munosabati – bu do'stona hamkorlik yoki to'qnashuv xarakterini olishga qodir bo'lgan odamlarning bir-biri bilan munosabatlaridir (bevosita va bilvosita). Darhaqiqat, "Vatan

² Саифназаров И.С. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. –Тошкент.: Меҳнат, 1997. - 32

³ Калканов Э.Т. Ватанпарварлик шаклланиши ва амал қилишининг боғлиқлик қонуниятлари. Фалс.фан. ном. дисс. автореф. –Тошкент: 2011. – 24б

⁴ Ғайбуллаев О.М. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни // "Имом Бухорий сабоқлари" журнали, 2022.- № 1. –Б. 145-146.

⁵ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 28 б

⁶ Фалсафа қомусий изоҳли луғат. – Т.: Шарқ, 2004. – 68 б.

tuyg‘usi – bu aziz va go‘zal Vatanimizga yuksak e‘tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo‘lishdir”⁷.

Tadqiqot metodologiyasi. Vatanparvarlik — bu fidoyilik, vatanga xizmat qilishni eng yuksak burch deb bilish, vatanni chin dildan sevishdir. Bu tushuncha o‘z ichiga “burch”, “mas‘uliyat”, “muhabbat”, “sadoqat”, “jasorat”, “mardlik”, “shafqat”, “mehr-oqibat”, “sodiqlik” va “ishonch” kabi ko‘plab axloqiy fazilatlarini oladi. Vatanparvarlik ma‘naviy-axloqiy mazmunga ega bo‘lib, ikki darajada namoyon bo‘ladi:

a) shaxsiy darajadagi vatanparvarlik;

b) umumiy (jamiyat ongidagi) darajadagi vatanparvarlik. Ma‘naviyat — vatanparvarlikning asosiy belgilovchi omilidir. Ma‘naviyat va vatanparvarlik bir-birini to‘ldiradigan ikki asosiy tushuncha bo‘lib, biri ikkinchisiz to‘liq bo‘lmaydi. Chinakam vatanparvarlikka erishish uchun inson ma‘naviy va axloqiy jihatdan katta mas‘uliyatni zimmasiga olishi kerak. Zero, vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lmagan inson o‘z yurtiga chin dildan sodiq va fidokor bo‘la olmaydi. Vatanparvarlik oilaga, jamoaga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga, shahringa, xalqingga va Vatanga fidoyilik orqali namoyon bo‘ladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ijtimoiy mazmunini hamda jamiyat rivojidadagi o‘rnini faqat bayon qilishning o‘zi yetarli emas. Ilm-fan, ayniqsa falsafa, bu qadriyatlarning uyg‘unligini “qism–butun”, “xususiy–umumiy”, “bo‘lak–yaxlit” kabi kategoriyalar orqali, induktiv va deduktiv yondashuvlarni birgalikda qo‘llagan holda, dialektik bog‘liqlikda chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Hozirgi globallashuv sharoitida milliy ma‘naviyat bilan bir qatorda umuminsoniy ma‘naviyatning roli tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy (alohida), mintaqaviy (xususiy) va umuminsoniy (umumiy) qadriyatlar o‘rtasidagi dialektik aloqalarni hisobga olib, yoshlarni milliy an‘ana va urf-odatlariga asoslangan holda tarbiyalash va ular asosida mustaqil fikr yurita oladigan avlodni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar insonlardan dunyo va jamiyatdagi o‘z o‘rniga, el-yurt va Vatan oldidagi burchiga, shuningdek, avlodlar kelajagiga yangi ijtimoiy-falsafiy qarashlarni talab qilmoqda. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar yangilanib, biz jahon xalqlari tomonidan qabul qilingan umuminsoniy boyliklar, qoidalar va tartiblarni o‘zlashtirmoqdamiz. Jamiyatda shakllangan mafkuralar tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilib, ularning jamiyatdagi o‘rni va transformatsiyasi tizimli tarzda taqdim etilgan.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda mafkuraviy omillarni mustahkamlash hozirgi kunning dolzarb talablaridan biri bo‘lib, quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish va yangi ma‘naviy makonni yaratish;
- jaholatga qarshi ma‘rifat kurashini kuchaytirish;
- fuqarolarning islohotlarga daxldorligini oshirish va kelajakka ishonchni mustahkamlash;
- zamonaviy tafakkurni rivojlantirish va tahdidbardosh jamiyat qurish.

Yoshlarning dunyoqarashida milliy qadriyatlarga hurmat va salbiy mafkuralarga qarshi immunitet shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekiston mafkurasini yaratishda eng avvalo, bu g‘oya xalq manfaatlari uchun va insonlarning farovon hayoti uchun ekanligini xalqga yetkazish zarur. Aynan shu jarayon mamlakatimizda davlat va boshqaruv modernizatsiyasi, yoshlarga doir siyosatda

⁷ Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 153 б.

mafkuraviy omillarning o'zgarishi va dinamikasini belgilaydi. Yosh avlodni tarbiyalashda mafkuraviy omillarning ta'sirini kuchaytirish esa modernizatsiya jarayonlari orqali turli yo'nalishlarda va usullar bilan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning vatanparvarlik darajasini aniqlovchi asosiy omillar qatoriga jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarining shakllanganligi, shaxsning ma'naviy-axloqiy qarashlari, hamda oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning samaradorligi kiradi. Ushbu omillar tahlil qilinib, tajribaviy darslarda ulardan foydalanish darajasi o'rganilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. – 275 б.
2. Саифназаров И.С. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. – Тошкент.: Мехнат, 1997. - 32
3. Калканов Э.Т. Ватанпарварлик шаклланиши ва амал қилишининг боғлиқлик қонуниятлари. Фалс.фан. ном. дисс. автореф. –Тошкент: 2011. – 246
4. Ғайбуллаев О.М. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни // “Имом Бухорий сабоқлари” журнали, 2022.- № 1. –Б. 145-146.
5. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 28 б
6. Фалсафа қомусий изоҳли луғат. – Т.: Шарқ, 2004. – 68 б.
7. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 153 б.